

**ZAMONAVIY TA’LIMDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR VA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARNING O’RNI**  
**Blended learning (aralash o’qitish)**

**Daminova Ozoda Rustamovna**

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinlovchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizmida ilg’or xorijiy tajribalarning o’rni va blended learning o’qitish usulining mohiyati va uning turlari. Blended learning o’qitish tizmida innovatsion texnologiyalarning ahamiyatini yoritib beramiz.

**Kalit so’zlar:** Blended learning, distance learning, fake-to-fake learning, online learning, innovatsiya, texnologiya, ta’lim.

Zamonaviy ta’limi tizimini modernizatsiya qilishda samaradorlik va sifat muammolari asosiy bo‘lib, unda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligining asosiy mezonlari va ko‘rsatkichlari hisoblanadi. O‘qitishning interfaol usullarini joriy etish zamonaviy ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni tayyorlashni takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni samarali amalga oshirishning zaruriy shartidir. Bu, eng avvalo, o‘qitishning informatsion shakl va usullariga faol o‘tish, nazariy yondashuvdan faoliyat yondashuviga yo‘naltirish, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini izlash zaruratidir. Endilikda kasbiy harakatchanlik nafaqat o‘z bilim va ko‘nikmalarini kasb yoki kasblar guruhi doirasida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishni, balki ular talab qilinadigan hududda ishlash imkoniyatini ham nazarda tutadi. Shu bois, kasb-hunar ta’limi va kadrlar tayyorlash milliy tizimlarini yagona ta’lim makoniga integratsiyalash g‘oyalari keyingi paytlarda ilgari surilmoqda. Ta’lim tizimining vazifasi zamonning ana shu tendensiyalaridan chetda qolmaslik, ularni hayotimizning bir qismiga aylantirishdan iborat

Bugungi kunda ta’lim tizimidagi o’zgarishlar ta’lim sifatini va ko‘rsatkichlarini har tomonlama rivojlantirishni taqozo etmoqda. Ta’lim jarayonida zamonaviy davlatlarning tajribalarini qo’llash va ta’lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalari ta’limning turli yangi ko‘rinishlarini taklif etmoqda, xususan keyingi vaqtarda modulli ta’lim tizimida majmuaviy yondashuv tamoyili kuchayib bormoqda. Unda turli shakl,

usullar moslashtirilgan holda joylashtirilishi aralash ta’limning innovatsiya sifatida kirib kelishiga sabab bo’ldi. Deklan Bern "blended learning" (aralash ta’lim) haqida shunday deydi –“ushbu ta’lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan”.

Bunday yondashuv axborotni taqdim etishda turli uslubiyotlardan foydalanishni, ta’limni tashkil etishda va ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an’anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv talabani charchatmaydi va o‘qishga bo‘lgan motivlarini kuchaytiradi. Asosiy masala - tanlangan uslubiyotlarning o‘zaro mutanosibligini ta’minlash va kam harajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi.

Bugungi kunda blended learning kunduzgi an’anaviy ta’lim va masofaviy ta’limning unsurlari kombinatsiyasi hisoblanib, bunda an’anaviy metodika va yangi texnologiyalarni uyg‘unlashtirishga imkon yaratiladi. Bu tizimda o‘qituvchi ta’lim markazida qoladi va internet imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Blended learning masofaviy ta’lim (Distance learning), sinf xonada ta’lim (Fake-to-Fake learning) va internet orqali ta’lim (Online learning)dan iborat. Vebinar metodi – zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalari (kompyuter, monitor, multimedia va shu kabi vositalar) yordamida turli joylardagi ishtirokchilar bilan masofadan turib o’tkaziladigan interfaol mashg’ulot turi.[1:1]

Masofaviy o‘qitish (Distance learning) - bu informatsion va kommunikatsion texnologiyalar elektron pochta, internet, video konferentsiya, audio, video ma‘lumotlar va multimedia o‘quv qo‘llanmalariga asoslangan uzoqdan turib o‘qitish, o‘rgatish usulidir. Masofaviy ta’limda talabandan doimiy faoliyat interaktiv o‘qitish talab etiladi. Bu esa mutaxassisning bilimi va qobiliyatini sifat xarakteristikasini oshiradi. Masofaviy ta’limda talaba va o‘qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o‘zaro maxsus yaratilgan o‘quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo’ladilar.

Internet texnologiyasini qo‘llashga asoslangan masofaviy o‘qitish jahon axborot ta’lim tarmog’iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o‘zaro aloqa tamoyiliga ega bo‘lgan muhim bir turkum yangi funktsiyalarni bajaradi. Masofaviy o‘qitish barcha ta’lim olish istagi bo‘lganlarga o‘z malakasini uzlusiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o‘qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o‘quv-uslubiy materiallarni o‘zlashtiradi, nazoratdan o’tadi, o‘qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «virtual o‘quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo’ladi.

Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'limgan, masalan, sog'ligi taqoza etmaydigan, mutaxassisligini o'zgartirish niyati bo'lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo'lgan kishilar uchun masofaviy o'qitish qulay o'qitish shakli hisoblanadi. Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalilanildi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferentsiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarni jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan.

Sinf xonada ta'lim (Fake-to-Fake learning) – ta'limni yuzma-yuz o'qitish usuli bo'lib, unda fan mazmuni va o'quv materiallari bir guruh talabalarga shaxsan o'rgatiladi. Bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida jonli muloqot qilish imkonini beradi. Bu o'qitishning eng an'anaviy turi. Yuzma-yuz o'rganish dars mazmunini yaxshiroq tushunish va eslab qolishni ta'minlaydi va sind a'zolariga bir-birlari bilan bog'lanish imkoniyatini beradi.

Internet orqali ta'lim (Online learning) – bu ta'lim tizmida asosan barcha fan mashg'ulotlari internet tarmog'i orqali olib boriladi. Bunda o'qituvchi tomonidan fan materiallari online o'quv platformasiga joylashtiriladi. Online learning ta'lim tizmiga misol qilib Vebinar metodini olsak bo'ladi

Vebinar metodi yoki “Webinar” texnologiya tushunchasi muloqotga 1998 yilda kirib keldi. Vebinar metodida dars masofaviy seminar yoki konferenstiya shaklida bo'ladi. Internet orqali bir vaqtda hozir bo'lgan talabalar bilan masofaviy ta'lim tizimida qo'llanayotgan ko'plab interfaol audio video aloqa vositalari yordamida jonli olib boriladi. Bu darslarni kelgusida kerak darajada foydalanish uchun yozib olish mumkin. Bu metodda olib boriladigan butun o'quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona o'quv dasturidagi izchillikda uzviy bog'lanmaydi, ular alohid martalik darslardan iborat.[1:2]

Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta'lim faoliyatini uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan o'quv va ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi. jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi tendentsiyalari.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni

faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlar qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlar keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchlik funksiyasini bajaradi.

Ta'lism sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari kengayib bormoqda. Quyidagi asosiy texnologiyalar guruhlarini ajratish mumkin:

- Mavzuni o'rganish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki AKT. Ushbu texnologiyalardan foydalanish axborot jamiyatining rivojlanishi va hayotning barcha sohalarida axborot vositalarini faol joriy etish bilan bog'liq. Bunday texnologiyalar talabalar ongini axborotlashtirishga qaratilgan. Ta'lism dasturlari informatika, axborot jarayonlari va AKTni o'rganishga qaratilgan yangi fanlarni o'z ichiga oladi. Professor-o'qituvchilar va talabalarning axborot madaniyatini oshirishga yordam berish uchun o'quv jarayoni ham faol ravishda axborotlashtirilmoqda;
- Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar. Ushbu texnologiyalar shaxsni o'qitish va tarbiyalashda ustuvor o'ringa qo'yishga qaratilgan. Butun ta'lism jarayoni shaxsning individualligi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, shaxsni rivojlantirishga qaratilgan.
- O'quv jarayonini axborot-tahliliy ta'minlash. Ushbu guruh texnologiyalaridan foydalanish har bir o'quvchi, sinf, parallel, ta'lism muassasasining rivojlanishini tadqiq qilish va ularni adekvat baholashga qaratilgan;
- Intellektual rivojlanish monitoringi. Texnologiyalar grafiklardan foydalanishga, test tizimiga, yangi baholash usullariga asoslangan bo'lib, ular individual o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini va umuman ta'lism sifatini kuzatish imkonini beradi;
- Ta'lism texnologiyalari. O'quv jarayonini tarbiyadan ajratib bo'lmaydi. Shu sababli, shaxsni, uning asosiy fazilatlarini rivojlantirishning yangi usullari joriy etilmoqda;
- Didaktik texnologiyalar. Ular ta'lism muassasasi rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunday texnologiyalar an'anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan texnika va vositalar majmuasiga asoslanadi: o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishslash, audiovizual, multimedia, tabaqlashtirilgan o'qitish usullaridan foydalanish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak innovatsion ta'lism texnologiyalarining asosiy maqsadi insonni doimiy o'zgarib turadigan dunyoda hayotga tayyorlashdir. Innovatsiyaning maqsadi - an'anaviy tizimga

nisbatan talaba shaxsini sifat jihatidan o'zgartirish. Shuning uchun o'qitishning innovatsion usullari o'quvchilarda kognitiv qiziqishni rivojlantirishga yordam beradi, ular o'rganilayotgan materialni tizimlashtirish va umumlashtirish, muhokama qilish va bahslashishga o'rgatadi. O'zlashtirilgan bilimlarni idrok etish va qayta ishlash orqali o'quvchilar ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'ladilar, muloqot tajribasiga ega bo'ladilar. Shubhasiz, innovatsion o'qitish usullari an'anaviy usullardan afzalliklarga ega, chunki ular bolaning rivojlanishiga hissa qo'shadi, uni bilish va qaror qabul qilishda mustaqillikka o'rgatadi.

Foydalanimilgan adabiyotlar.

1. M.Mutalipova, M.Imomova. “Ta’limda ilg’or xorijiy tajribalar”. O’quv uslubiy-majmua. T:2016
2. Ишмухамедов Р. ва б. Таълимда инновацион технологиялар.-Т.: Истеъдод, 2008.
3. Ишмухамедов Р. Таълимда инновация.-Т.:Фан, 2010
4. Akhmedov A. “Depressive behavior in sports competitions and their characteristics of will-sustainability” JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. 4-Apr 2020
5. Ziyomuhamedov B. Pedagogika . Т.: “ Turon-Iqbol”, 2006.
6. Ермолаева Е.И. Модульное обучение в вузе: его основные учебные элементы. - Пензинский университет, 2010.